

SHARTNOMA № 14

(Byudjetdan mablag' oluvchi muassasalarni dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta'minlash haqida)

« 17 » Yanvar 2022 yil.

Ushbu shartnoma bir tomondan **“OSIYO FARM MEDICAL” MChJ** nomidan rahbar **K.K. Abduraxmonov** vakilligida kelgusida **“Ta'minotchi”** va ikkinchi tomondan **Farg'ona shahar 2-sonli shifoxonasi** boshlig'i **B.B. Abduraxmonov** vakilligida kelgusida **“Buyurtmachi”** o'rtasida har ikki tomonning amaldagi **“Nizom”**lari va O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va **“Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar vaoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida”**gi Qonuniga, shuningdek, boshqa amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq quyidagi mazmunda tuzdilar:

I. Shartnoma predmeti

1.1 **“Ta'minotchi” “Buyurtmachi”** ga ushbu shartnomaga asosan umumiy qiymati **(7 003 500,00)**

Yetti million uch ming besh yuz so'm 00 tiyin

(summa raqam va so'z bilan yoziladi)

bo'lgan dori vositalari hamda tibbiy buyumlar (kelgusida **“Tovar”** deb nomlanadi)ni spetsifikatsiyaga asosan bir marotabalik yoki yillik talabnoma asosida yetkazib beradi.

1.2. **“Ta'minotchi”** esa o'z navbatida ushbu **“Tovar”**lar uchun kelishilgan haqni shartnomaning 2-bo'limida belgilangan shartlar asosida **“Buyurtmachi”**ga to'laydi.

II. To'lov tartibi

2.1. **“Buyurtmachi”** shartnoma imzolanganidan so'ng yetkazib berilishi lozim bo'lgan **“Tovar”** umumiy qiymatining 30 % ni oldindan 2 101 050,00 so'm miqdorda **“Ta'minotchi”** ning hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan to'laydi. Yetkazib berilgan **“Tovar”** lar to'lovining qolgan, ya'ni 70 % qismi esa **“Buyurtmachi”** tomonidan **“Tovar”** qabul qilib olingandan so'ng 30 (o'ttiz) kalendar kun ichida to'liq to'lab beriladi.

III. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

3.1. **“Ta'minotchi”ning huquq va majburiyatlari:**

3.1.1. **“Buyurtmachi”** tomonidan **“Tovar”** umumiy narxining 30 foizi **“Ta'minotchi”** ning hisob raqamiga oldindan to'langandan so'ng **“Ta'minotchi”** **“Buyurtmachi”** ni **“Tovar bilan ta'minlaydi.**

3.1.2. **“Ta'minotchi”** **“Buyurtmachi”** ga tegishli hujjatlar asosida **“Tovar** ni belgilangan tartibda hamda belgilangan standart sifat darajasida topshirish majburiyatini oladi.

3.1.3. **“Ta'minotchi”** **“Buyurtmachi”** ga qulaylik yaratish maqsadida **“Tovar”** ni o'z transport vositalarida **“Iste'molchi”** ning manzilgohiga yetkazib berishi mumkin. Bu holda transport vositasi orqali yetkazib berish xarajati **“Ta'minotchi”** tomonidan qoplanadi.

3.1.4. **“Ta'minotchi”** ning transport vositasida yetkazilgan **“Tovar”** miqdoridan aniqlangan kamomad hamda sifatsizliklar yuzasidan **“Buyurtmachi”** **“Ta'minotchi”** ning vakili ishtirokida **“Tovar”** yetkazilgan kundayoq dalolatnoma tuzib holatni tasdiqlaydi. Mazkur dalolatnomaga asosan kamomad hisobi **“Ta'minotchi”** tomonidan to'ldiriladi. Agarda ushbu harakatlar o'z vaqtida amalga oshirilmasa e'tiroz asossiz deb hisoblanib, inobatga olinmaydi.

3.1.5. **“Ta'minotchi”** Sog'liqni saqlash tizimidagi yuqori tashkilotlar tasdiqlagan markazlashgan taqsimot orqali dori vositalari va muruvvat yordamlarida kelgan **“Tovar”** lar bilan **“Buyurtmachi”** ni ta'monlaydi. Taqsimotni tasdiqlagan tashkilotning ruhsatsiz **“Ta'minotchi”** **“Tovar”** ni olishga haqli emas.

3.2. **“Buyurtmachi” ning huquq va majburiyatlari:**

3.2.1. **“Ta'minotchi”** **“Buyurtmachi”** dan shartnoma tuzilgandan so'ng yetkazib berilishi lozim bo'lgan **“Tovar”** uchun ularning umumiy qiymatining 30 foizini oldindan to'lagandan so'ng 10 kalendar kun ichida tegishli hujjatlarni rasmiylashtirib, **“Tovar”** ni ishonchnoma asosida qabul qilib olish huquqiga ega.

3.2.2. **“Ta'minotchi”** **“Buyurtmachi”** dan O'zbekiston Respublikasida farmakologik ro'yhatdan o'tkazilib, ishlatishga ruhsat etilgan, sifati, markirovka va o'ramlari amaldagi farmatsevtik va texnik talablarga javob beradigan hamda sifat sertifikatiga ega bo'lgan **“Tovar”** larni talab qilish huquqiga ega. Yetkazib berilgan **“Tovar”** sifatsiz va belgilangan texnik talablarga mos kelmasa, **“Ta'minotchi”** **“Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida”** gi Qonunning 26-moddasiga muvofiq **“Tovar”** ni qabul qilishni hamda ularning haqini to'lashni rad etib, **“Ta'minotchi”** dan sifatsiz va belgilangan texnik talablarga mos kelmaydiga **“Tovar”** qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirishga haqli.

IV. Tomonlarning mulkiy javobgarliklari

4.1. Tomonlarning mulkiy javobgarliklari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi, **“Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida”** gi Qonuni va boshqa amaldagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

4.2. **“Ta'minotchi”** tomonidan yetkazib berilgan **“Tovar”** uchun to'lanishi lozim bo'lgan to'lov haqi **“Buyurtmachi”** tomonidan o'z vaqtida amalga oshirilmasa, O'zbekiston Respublikasining **“Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida”** gi Qonunining 32-moddasiga muvofiq to'lov kechiktirilgan har bir kun uchun to'lanishi lozim bo'lgan umumiy summaning 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50% dan ortiq bo'lmagan miqdorda **“Ta'minotchi”** ga penya to'laydi.

4.3. **“Buyurtmachi”** tomonidan **“Ta'minotchi”** ga berilgan buyurtmalarni **“Buyurtmachi”** ushbu shartnomaning umumiy summasidan kelib chiqqan holda to'liq olishi shart. Aks holda **“Buyurtmachi”** dan O'zbekiston Respublikasining **“Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida”** gi Qonunining 31-moddasiga muvofiq olinmay qolgan (olish asossiz rad etilgan) **“Tovar”** summasining 5 foizi, tez buziladigan **“Tovar”** lar bo'yicha esa 10 foiz miqdorida jarima undiriladi.

4.4. **“Buyurtmachi”** tomonidan **“Ta'minotchi”** ga berilgan buyurtmalarni yetkazib berishni **“Ta'minotchi”** asossiz ravishda kechiktirsa, kechiktirilgan har bir kun uchun **“Ta'minotchi”** **“Buyurtmachi”** ga yetkazib berilmagan **“Tovar”** umumiy

qiymatining 0.5 foizi miqdorida, ammo yetkazib berilmagan Tovar qiymatining 50% dan ortiq bo'lmagan miqdorda to'laydi.

V. Korruptsiyaga qarshi qo'shimcha shartlar

- 5.1. Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korruptsiyaviy xarakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar.
- 5.2. Taraflar shartnomadagi korruptsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korruptsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydilar.
- 5.3. Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosabatlar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yo'l qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va'da qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki xar qanday turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kelajakda bu turdagi xarakatlarni amalga oshirishi mumkinligi xaqida taassurot qoldirilmaganligini) kafolatlaydi.
- 5.4. Ushbu xolat bo'yicha bir taraf ikkinchi tarafni xamda vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qilishi shart.
- 5.5. Tarafning talabi bo'yicha ikkinchi taraf tomonidan-qoidabuzarliklarni bartaraf qilish bo'yicha oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf shartnomani bir tarafdama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli.

VI. Fors-major holatlari

6.1. Taraflardan hech biri boshqa tarafning oldida ushbu shartnoma bo'yicha olgan majbutiyatlarni tarafdarning erki va istagidan tashqari paydo bo'lgan va ularni oldindan ko'ra bilish yoki bartaraf etish mumkin bo'lmagan holatlar (urushlar, fuqarolik tartibsizligi, epidemiya holat, blokada, embargo, tabiiy ofatlar) bilan bog'liq holatda bajarmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

VII. Nizolarni hal qilish tartibi

7.1. Ushbu shartnoma yoki unga bog'liq masalalar yuzasidan kelib chiqadigan barcha nizolar o'rtasida muzokara yo'li bilan hal qilinadi. Agarda kelishuvga erishilmasa qonun hujjatlarida belgilangan tartibda "Buyurtmachi" joylashgan joydagi iqtisodiy sud tomonidan hal qilinadi.

VIII. Shartnoma muddati va uni o'zgartirish tartibi

- 8.1. Mazkur shartnomaga kiritiladigan barcha o'zgartirishlar va qo'shimchalar faqat tomonlarning o'zaro yozma kelishuvlari bilan kiritilishi mumkin. O'zaro kelishilmagan taqdirda mavjud nizo "Buyurtmachi" joylashgan joydagi iqtisodiy sud orqali O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari asosida hal qilinadi.
- 8.2. Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nushada tuziladi.
- 8.3. Ushbu shartnoma g'aznachilik bo'limi tomonidan ro'yhatdan o'tkazilgan kundan boshlab yuridik kuchga kiradi.
- 8.4. Shartnoma 2022 yil "31" dekabr kuni qadar amal qiladi.

IX. Tomonlarning pochta manzili va to'lov rekvizitlari

"Ta'minotchi"

"OSIYO FARM MEDICAL" MChJ

Manzil: Farg'ona viloyati Oltiariq tumani, Yangi

Qo'rg'on MFY O'zbekiston ko'chasi 166-uy

Ombori: Farg'ona sh, A.Qodiriy ko'chasi № 83-uy


x/r: 20208000905120043001

MFO: 01168

Bank: Ipak yo'li AITB Farg'ona filiali

INN: 306696578 OKONX: 47730

Tel: 9016175-66



Rahbar: Abdurahmonov K.K.
(imzo, mulkiy Sh)

"Buyurtmachi"

Farg'ona shahar 2-sonli shifoxona

Manzil: Murvat 40² uy

x/r: 401422860304017073101054005

Bank: Markaziy bank Toshkent sh XK

STIR 200145154 OKONX: 91511

G'aznachilik bo'linmasi nomi:

Markaziy bank Toshkent shahar Bosh boshqarmasi
XKKM

Yagona g'azna x/v: 23402000300100001010

MFO: 00014 STIR: 201122919

Tel: 245-58-08

Rahbar: Abduraxmonov B.B.
(imzo, mulkiy Sh)



Huquqiy xulosa

Mazkur shartnoma loyihasini O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida" gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari asosida huquqiy ekspertizadan o'tkazib:

- Shartnoma loyihasining amaldagi qonun hujjatlari talablariga javob berishini va qonunga mos holda tuzilganligini;
- Tomonlarning shartnomada ko'rsatilgan mulkiy javobgarliklari va o'zaro nizolarni hal qilish yo'llari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi hamda "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida" gi Qonuni asosida belgilanganligini aniqladim.

Yuqoridagilarga asoslangan holda shartnoma loyihasini qonun hujjatlari asosida tuzilgan deb hisoblayman va tomonlarga uni imzolashni tavsiya etaman.


Yurist: _____

SPEZSIFIKATSIYA

17.01.2022 yildagi № 14-sonli Shartnomaga asosan

Ta'minotchisi: "OSIYO FARM MEDICAL" MCHJ
 Buyurtmachi: Farg'ona shahar 2-sonli shifoxonasi

№	Tovar nomi	O'lch.bir.	Miqdori	Narxi			Tovarni yetkazib berish narxi
				Ulgurji narx	QOS	Tovar narxi	
1	(236) Перчатка латексные смотровой не стер. для однократ. применения	шт	4000	989,00	0,00	989,00	3 956 000,00
2	(235) Перчатка стерыл. хирург. однораз. р 7,5	пара	1000	3 047,50	0,00	3 047,50	3 047 500,00
Jami: Yetti million uch ming besh yuz so'm 00 tiyin							7 003 500,00





Oltiariq tumani "Yangi Qo'rg'on" MFY
O'zbekiston ko'chasi 166-uy
x/r: 20208000905120043001
MFO: 01168, INN: 306696578
Ipak yo'li AITB Farg'ona filiali

Алтыарыкский район "Янги кўргон" М.Ф.Й.
улица. Ўзбекистон 166 дом
P/C: 20208000905120043001
МФО: 01168, ИНН: 306696578
Ипак йўли АИТБ Ферганский филиал

№ 14

Tijorat taklifi

"OSIYO FARM MEDICAL" MChJ INN 306696578 Sizga ushbuni yozib ma'lum qiladiki korxonamiz sizga quyidagi tovarlarning narxlarini taklif etadi

№	Tovar nomi	O'Ich.bir.	Miqdori	Narxi
1	(236) Перчатка латексные смотровой не стер. для однократ. применения	шт	1	989,00
2	(235) Перчатка стерыл. хирург. однораз. р 7,5	пара	1	3 047,50

"OSIYO FARM MEDICAL" MChJ raqbar:



Abdurahmonov K.K

